

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING PUBLITSISTIK VA IJTIMOYIY- SIYOSIY FAOLIYATIDA MILLIY UYG‘ONISH VA MA‘RIFATPARVARLIK G‘OYALARI

Furkatova Nilufar Furkat qizi

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Xalqaro munosabatlar va gumanitar fanlar fakulteti

“Siyosatshunoslik” yo‘nalishi talabasi

E-mail: nilufar.furkatvna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu nazariy-tahliliy maqola ma‘rifatparvar jadid Mahmudxo‘ja Behbudi hayoti haqida ma‘lumot berib o‘tiladi. Shuningdek, jadidning o‘z millatini himoya qilish va zalolatdan qutqarishga qaratilgan maqolalari keltirib o‘tiladi. Shuningdek, uning “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Xurshid”, “Hurriyat” kabi nashrlardagi maqolalari asosida millat, o‘zlikni anglash, ta‘lim va ijtimoiy islohot masalalariga munosabati yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik mafkurasini shakllantirishdagi o‘rni va Turkiston milliy uyg‘onishidagi tarixiy ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar; jadidchilik, Mahmudxo‘ja Behbudi, publitsistika, milliy uyg‘onish, mustamlakachilik tanqidi, ma‘rifatparvarlik.

Аннотация. В данной теоретико-аналитической статье рассматриваются жизнь и деятельность просветителя-джадиды Махмудходжи Бехбуди. В работе анализируются его публицистические статьи, направленные на защиту национальных интересов и освобождение общества от невежества. На основе материалов, опубликованных в изданиях «Туркистон вилоятининг газетаси», «Хуршид» и «Хуррият», раскрываются взгляды Бехбуди на вопросы национальной идентичности, самосознания, образования и социальных реформ. Результаты исследования позволяют определить вклад Махмудходжи Бехбуди в формирование идеологии джадидизма и его историческую роль в процессе национального пробуждения в Туркестане.

Ключевые слова: джадидизм, Махмудходжа Бехбуди, публицистика, национальное пробуждение, критика колониализма, просветительство.

Abstract: This theoretical and analytical article examines the life and activities of the enlightenment-oriented Jadid intellectual Mahmudkhoja Behbudi. The study

analyzes his journalistic works aimed at protecting his nation and liberating society from ignorance. Based on his articles published in periodicals such as Turkiston Viloyatining Gazeti, Khurshid, and Hurriyat, the paper explores Behbudi's views on national identity, self-awareness, education, and social reforms. The results of the study highlight Mahmudkhoja Behbudi's significant role in shaping Jadid ideology and his historical importance in the process of national awakening in Turkestan.

Keywords: Jadidism, Mahmudkhoja Behbudi, journalism, national awakening, critique of colonialism, enlightenment.

KIRISH

XX asrning boshlari Turkiston xalqlari uchun milliy uyg'onish davri bo'ldi. Dunyodan uzilib qolgan turkiy xalqlar yana bir fojiaga duch keldi. Ushbu fojiadan qutilishning yo'li qurol-yarog' emasligini bilgan ziyolilar va taraqqiyparvarlar xalqni zalolatdan qutqarishga bel bog'lashdi. Ismoil G'aspirali Samarqandga kelganida Behbudiy uni qarshi oladi va ko'zida yosh bilan uni qarshi oluvchi ziyolilar yo'qligini aytadi. Bu ko'z yoshlar zaif kishining emas balki buyuk qalbning xalqi uchun to'kkan iztirobi edi. Ushbu voqea mustamlaka hokimiyat ham ziyolilar ishlariga jim qarab turmagani ularni iziga tushib, jismonan yo'q qilganidan xabar beradi. Ma'rifat tarqatish yo'lida taxqir va takfirlarga, bosimlarga to'xtab qolmagan shaxslardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Samarqandning Baxshitepasida tug'iladi va mahalliy mullalar qo'lida ta'lim olib, Samarqand, Buxoro madrasalarida o'qish chog'idayoq mulla, qozilarning jaholatga botganidan xunob bo'ladi. Mirzo bo'lib ishlab, qozilikka ko'tariladi. Lekin o'zining xotiralarida ham tirikchilik, ham ma'rifatparvarlik, noshirlik ishlari bilan bo'lib qozilikni tashlashga majbur bo'ladi. 1893-yildan "Tarjumon" gazetiga obuna bo'lib dunyoda bo'layotagan ishlar, hozirgi ahvol haqida bilib boradi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining publitsistik faoliyatini 1902-yilda Turkistonda mahalliy tilda nashrdan chiqqan rasmiy „Turkiston viloyatining gazetisi“dan boshlagan. Ilk maqolasidayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, "hayoliy", "bu toifaga qo'shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik" deb yozgan edi "Xayrul umuri avsatuxo – "Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir" nomli Xurshid gazetasining 1906-yilgi 6-sonida. Shuningdek, o'zlikni anglashni muhim deb biladi. "Qabilasining ismini va yeti otasining otini bilmaydurg'onlarni "markuk" derlar" deb yozadi "Sart so'zi majhuldir" nomli maqolasida¹. 1899-1900-yillarda haj safariga chiqib sayohat

¹ "Dunyodan xabardor ma'rifatparvar", N.Nomozova "Tanlangan asarlar" 18.01.2017

qilgan davlatlaridagi ta'lim, ijtimoiy hayotdagi rivojlanishdan ruhanib, yangi usul maktablari ochish uchun harakatga tushadi. Xususan, Shakuriyning N.Ostroumov tazyiqlari ostida qolgan usuli jadid maktabini Behbudiy o'z hovlisiga ko'chirib keladi va o'z himoyasiga oladi². Bundan ko'rinib turibdiki, mustamlaka hukumat tazyiqlariga qaramasdan xalq oldidagi burchidan yuz burmagan edi. Chunonchi matbuotda "Samarqandning usuli jadida maktabi Turkiston taraflarida xeyli mashxur o'ldig'indan faqat shuni kurmak uchun vorub so'ngra angladimki, maktabning shuxrati yolg'uz buning muassisi o'lon mufti Mahmudxo'ja afandi soyasida ekan" degan mazmundagi tanqidiy maqolalar uyushtiriladi. Uning bunday harakatlariga dushmanlik ko'zi bilan qaraydigan kuchlar jim turmadi. Mustamlakachilar "50 yil ilm-ma'rifatdan chetda saqlab kelgan"lari (Kuropatkin) Turkistonni osonlik bilan qo'ldan chiqarmas edilar. Fitna va ig'vo tinimsiz davom etardi. Shundaylardan biri 1917-yilning bahorida Buxoroda yuz bergan edi. Amir fevral o'zgarishlarini hisobga olib, rus elchixonasining maslahati bilan islohot e'lon qiladigan bo'ladi. Va bu farmonni ushbu elchixonaning boshlig'i janob Miller tayyorlaydi. Har xil anglashilmovchiliklarning oldini olish maqsadida sobiq general-gubernator, endilikda Rusiya Muvaqqat hukumatining Turkiston komissari Kuropatkin topshirig'iga ko'ra Samarqand ijroiya qo'mitasi Buxoroga bir necha kishilik hay'at yubordi. Ular orasida Behbudiy ham bor edi. 7-aprel islohot e'loni oldindan mo'ljallanganidek tantanaga, tantana esa fojiaga aylanadi. Amir va yoshlar, mullalar va jadidlar o'rtasida o'tib bo'lmas choh paydo bo'ladi. Miller buning aybini Behbudiyga qo'yadi. Faqat Miller emas, Toshkentda 9-aprelda boshlangan Turkiston ishchi va soldat deputatlari sovetlarining birinchi o'lka syezdida ayrim rus deputatlari Buxoro fojiasining sababini Samarqanddan «o'z ixtiyorlari bilan» borgan deputatlarga to'nkaydilar. Millatni ich-ichidan qayrash va nizo chiqarish izchil davom etadi. Behbudiy mazkur syezdda minbarga chiqib, bor voqeani tushuntirib bergan va bu haqda «Buxoro voqealari va daf'i tuhmat» ("Hurriyat" gazetasi, 1917-yil 1-may) degan maxsus maqola yozgan edi³. Millat sha'nini oyoqosti qiluvchi fikr-qarashlarga zarba berib, Turkiston xalqini o'z nomi bilan atamoq lozimligini talab qilib chiqdi o'zining "Sart so'zi majhuldur" maqolasida. (1915, № 22,23,25,26). Eng mashxur shiorga aylangan "Haq olinur, berilmas" maqolasi ochiqdan-ochiq qardosh xalqlarimizni birlikka chaqiradi va "Endi ishlar shu holda ekan, biz hammamiz, ya'ni qirg'iz, qozoq, o'zbek, Turkman, arab, fors, xullas, Turkistondagi, Qozog'istondagi va Turkmanistondagi barcha musulmonlar va ham mundagi yaxudiy va xristianlar birlashib, ittifoq ila shu

² "Dunyodan xabardor olim", N.Nomozova, 12-15-b

³ Mahmudxo'ja Behbudiy: turkiston jadidchilik harakatining yo'l boshchisi, milliy ma'rifat rahnamosi. 2020.09.07

muxtoriyatning amalga kelishiga sa'y va extimom etmog'imiz lozimdur. Agarda bziga o'z boshimizga, shariat, urf va odatimizga muvofiq tirikchilik qilmoq kerak bo'lsa, hammamiz vaqtli nizo va "manman"likni qo'yib, hamma narsani esimizdan chiqorib, yolg'uz "muxtoriyat" uchun har nimarsamizni fido etmog'imiz lozimdur"⁴deb yozib qoldiradi. Ushbu fikrlar Behbudiyning taraqqiyparvar ziyolilar orasidagi sobitqadamlaridan biri ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA

Jadidshunos Begali Qosimovning ta'kidlashicha: "Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi. Mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi. Buni ulug' millatparvarning zamondoshlari ham e'tirof etgani ma'lum. Mashhur davlat arbobi Fayzulla Xo'jaevning Behbudiy haqidagi bu so'zlarida zarracha mubolag'a yo'q. Zero, "Mahmudxo'ja Behbudiy siyosatshunos va publisist, adib va pedagog, noshir va jurnalist sifatida keng qamrovli faoliyat olib bordi. Har bir ishida bosh mezon millat va milliyat masalalari bo'ldi⁵. Darvoqe, mashhur tatar ma'rifatparvari Abdurashid Ibroximov Behbudiy va Shakuriyni "o'zbeklar qaxramoni" deya bejiz ta'riflamagan edi. Uning publitsistik merosi xalqni jaholatdan chiqarish, milliy o'zlikni anglash, zamonaviy ta'lim va ijtimoiy islohotlar zaruratini asoslab berishi bilan ajralib turadi. Behbudiy o'z maqolalarida mustamlakachilik siyosatining mohiyatini ochib berib, millat sha'ni va manfaatlarini himoya qilishni bosh mezon sifatida ilgari surdi. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, jadid maktablarini qo'llab-quvvatlashi, matbuot orqali xalqni uyg'otishga qaratilgan sa'y-harakatlari Turkiston jamiyatida yangi tafakkur va milliy ong shakllanishiga xizmat qildi. Behbudiyning fojiali taqdiri esa mustamlaka va keyingi siyosiy tuzumlarning jadidchilik harakatiga bo'lgan munosabatini yaqqol ko'rsatadi. Bugungi kunda Mahmudxo'ja Behbudiy merosi milliy ma'naviyat, vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalarini o'rganishda muhim ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

⁴ Haq olinur, berilmas". M.Behbudiy Samarqand, "Xurriyat" gazetasi 1918-yil, 26-yanvar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Dunyodan xabardor ma’rifatparvar”, N.Nomozova “Tanlangan asarlar”
<https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/mahmudxoja-behbudiy-tanlangan-asarlar-nilufar-namozova-dunyodan-xabardor-marifatparvar.html>
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasida vatan milliy g‘oya va millat tarixi masalalarining yoritilishi 03.11.2023 <https://hidoya.uz/uz/news/1153>
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy: turkiston jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, milliy ma’rifat rahnamosi <https://yuz.uz/uz/news/mahmudxoja-behbudiy-turkiston-jadidchilik-harakatining-yolboshchisi-milliy-marifat-rahnamosi>
4. Mahmudxo‘ja Behbudiy https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmudxo%CA%BBja_Behbudiy
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy maqolalari <https://kh-davron.uz/yangiliklar/mahmudxoja-behbudiy-maqolalar.html>